

XOTIN-QIZLAR INNOVATSION TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIY MEZON VA NORMALARNING UYG‘UNLIGI

To‘yeva Muhayyo Shuxrat qizi

TDPU “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

tuyevamuhayyo@gmail.com

m_toyeva@tdpu.uz

+998931226699

ORCID-0000-0002-5073-1093

Anontasiya: Ushbu maqolada xotin-qizalar innovatsion tafakkurini oshirishda ijtimoiy mezon va normalarning o‘rni haqidagi ijtimiy-falsafiy tahlilar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, raqobatbardosh jamiyat, rivojlanish, ijtimoiy mezon, normalar, gendirtenlik.

I.KIRISH

Bugungi dunyoda ayollar va erkaklarning jamiyatdagi o‘rni dolzarb va munozarali mavzulardan biri hisoblangani bois shu mavzuni yanada chuqurroq va ilmiy asoslarga tayangan holda o‘rganishga qaror qildim. Ikkinchchi jahon urushi va urushdan keying davrda ayollarning ommaviy ishlab chiqarishga jalb etilishi munosabati bilan sodir bo‘lgan ijtimoiy o‘zgarishlar ularning jamiyat va ijtimoiy ishlab chiqarishdagi o‘rni haqidagi an’anaviy nazariy jihatlarini qayta ko‘rib chiqishga olib kelmoqda.

Shunday qilib, mamlakatimiz 1997 yil 30 avgustda “Ayollarning siyosiy huquqlari to‘g‘risida”, 1995 yilda “Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi konvensiyaga qo‘sildi. O‘zbekiston Respublikasining 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiyasida xotin-qizlarga teng huquq va imkoniyatlar taqdim etilishi bu boradagi eng katta qadamlardan biridir.

Xotin-qizlarning innovatsion tafakkurini rivojlanish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Innovatsion tafakkur insonning yangi g‘oyalarni ilgari surish, muammolarga ijodiy yechim topish va texnologik yutuqlardan samarali foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu jarayonda ijtimoiy mezon va normalarning uyg‘unligi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki jamiyatdagi qadriyatlar, an’analar va madaniy yondashuvlar xotin-qizlarning ijodkorlik va tashabbuskorlik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bugungi o‘zbek ayoli ishlab chiqarish, ilf-fan, tadbirkorlik, san’at, sport, hunarmandchilik, qo‘yingki, barcha sohalarda muvaffaqiyatlarga erishmoqda, xotin-qizlar davlat va jam oat tashkilotlarida va m uassasalarga rahbarlik qilmoqda. Prezidentimiz O‘zbekiston xotin-qizlariga 8 mart bayrami bilan tabrik yo‘llar ekan, «... ayollarimizning siyosiy-ijtimoiy hayotdagi o‘rni va ta’siri ortib borayotganini davlat hokimiyatining barcha bo‘g‘inlaridagi vakillik organlarida 1132 nafar xotin-qiz, jum ladan, Oliy Majlisim iz tarkibida 48 nafar senator va deputatlar faoliyat yuritayotgani, qariyb 332 ming ayol siyosiy partiyalaming a’zosi sifatida o‘z salohiyatini namoyon qilayotgani, fuqarolik jamiyatining tayanchi bo‘lgan nodavlat notijorat tashkilotlarida ularning faol ishtirok etayotganida ko‘rish, kuzatish qiyin emas», — deya ta‘kidladilar.

Xotin qizlar innovatsion tafakkurini rijklantirishning ijtimoiy mezon va normalari davlatda jamiyat va mintalitet bilan bog'liq bir qancha muammolarni keltirib chiqarishi bilan bog'liq bir qator jihatlarni o'rganishni o'z ichiga oladi davlat xizmati sohasida ishlaydigan ayol xodimlarni yaxshiroq tushunishga ehtiyoj bor, qaysi ma'nodaki ularga bo'lgan munosabat har doim ham to'g'ri bo'lavermaydi, aksariyat hollarda ularning ishonuvchan va hissiyotgan beriluvchi jins vakillari bo'lganliklaridan foydalanish holatlari ham uchrab turadi. Xotin-qizlarning hayotiy muammolari, ehtiyojlari va rollari (birinchi navbatda oilaviy rollar, mas'uliyatlar va boshqalar bilan bog'liq), ayollarning ishidan qoniqish, kasbiy va shaxsiy qadriyatlar va boshqalar haligacham yo'qolmaganligining o'zi ham bu muammoning naqadar jiddiy ekanligini ko'rsatadi. Bu ham davlat organlarida ayollarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ichki tashkiliy siyosatni rejalashtirish uchun zarur muassasalar faoliyati yo'lga qo'yilishi va uning shaffof hamda ichki nazoratning kuchaytirilishiga ehtiyoj yuqoriligini ko'rishimiz mumkin.

II. METODLAR

Ijtimoiy mezonlar va normalar jamiyatda odamlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar tizimidir. Ular quyidagi jihatlarda xotin-qizlarning innovatsion tafakkuriga ta'sir ko'rsatishi mumkin:

1. Ta'lim va kasbiy rivojlanish: xotin-qizlarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish ularning ilmiy-ijodiy salohiyatini rivojlanirishga turtki bo'ladi. Zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish va tadqiqot faoliyatida ishtirok etishlari jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi lozim.

2. Ijtimoiy stereotiplar va gender tengligi an'anaviy gender rollari ba'zan xotin-qizlarning innovatsion sohalarga kirib kelishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Gender tengligi tamoyillari mustahkamlangan jamiyatda xotin-qizlar o'z salohiyatini to'liq namoyon qila oladilar.

3. Oila va jamiyatdagi qo'llab-quvvatlash tizimi oila muhitining xotin-qizlar innovatsion tafakkuriga ta'siri katta. Oilaning ma'naviy va moddiy qo'llab-quvvatlashi ularning tashabbuskorligini oshiradi. Jamiyat tomonidan xotin-qizlar uchun ishbilarmonlik va startap ekotizimlarini rivojlanirish muhim ahamiyatga ega.

4. Huquqiy va iqtisodiy omillar xotin-qizlarning intellektual mehnatini qadrash va huquqlarini himoya qilish innovatsion faoliyatni rag'batlantiradi. Moliya va grant dasturlarining mavjudligi xotin-qizlarning startap va tadbirkorlik sohasida ilg'or g'oyalarini hayotga tatbiq etishiga yordam beradi.

O'zbekistonning ilmiy, ma'naviy va ma'rifiy sohalarida xotin-qizlarning o'rni tobora ortib borayotganligi quvonarli albatta. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlashicha, xotin-qizlar jamiyatning o'zagini tashkil etuvchi muhim tarkibiy qismlar bo'lib, ularning salohiyatini ro'yobga chiqarish, jamiyatning rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega eknligini takidlashimiz va e'tibor qaratishimiz lozim. Ammo, xotin-qizlarning ilm-fan va ma'naviyat sohalarida faol ishtirok etishidagi muammolar mavjud. Ushbu maqolada xotin-qizlarning ilmiy va ma'naviy sohalarda to'siqlar va ularni hal etish uchun taklif etilgan yechimlar haqida batafsil ilmiy amaliy ishlar amalga oshirishni taqazo etadi.

Xotin-qizlar uchun gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan qonunlar qabul qilindi. 2023 yilda, 92 mingdan ortiq xotin-qiz oliy ta'limga tamomladi va bu raqam 2016 yilga nisbatan deyarli uch barobar ortdiganligini ko'rishimiz mumkin. Bu ilm-fan va ta'limga xotin-qizlar salohiyatini oshirishda sezilarli o'zgarishlarni ko'rsatishga olib keldi. Biroq, xotin-qizlarning ilm-fan va ma'naviyat sohasidagi faoliyatni hali ham bir qator muammolar bilan to'qnashmoqda. Ushbu muammolarni tahlil qilib, quyidagi asosiy masalalarga e'tibor qaratish zarur deb topdik:

a) Ilmiy sohalarga kirishda ayollarga nisbatan ijtimoiy to'siqlar: O'zbekistonning ayrim hududlarida xotin-qizlar uchun ilm-fan va ta'limga kirish imkoniyatlari hali ham cheklanganligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, qishloq joylarda, yoshi kattaroq xotin-qizlar uchun ta'limga olish imkoniyatlari deyarli yo'q. Shu sababli, ilm-fan va innovatsion texnologiyalar sohalarida xotin-qizlarning ishtirokini oshirish uchun ularga teng imkoniyatlar taqdim etilishi lozim va ilmiy ishlarda bu masalalarga alohida e'tibor qaratish shart.

b) Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi pasaygan (suniy to'siqlar sababli): Ko'plab xotin-qizlar o'zlarining ilmiy yoki ma'naviy faoliyatlariga to'sqinlik qiluvchi ijtimoiy, oilaviy yoki iqtisodiy omillarga duch kelayotganliklari davom etmoqda. Jamiyatda ayollarning ijtimoiy faolligi past darajada bo'lib, ular ko'pincha iqtisodiy va oilaviy mas'uliyatlarni o'z zimmasiga oladilar, natijada ilmiy faoliyatda ishtirok etish uchun zarur vaqt va resurslarga ega bo'lmaydilar.

c) Ilm-fan va ma'naviyatda ayollar uchun yetarli rag'batlantirishning yo'qligi: Xotin-qizlarni ilm-fan sohasida o'z salohiyatlarini to'liq namoyon qilishlari uchun yetarli rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash tizimi yo'q ular qog'ozlarda va yuqori tashkilotalar matbuot anjumarida qilgan nutqlarida bor xolos. Ko'pincha ilmiy tashkilotlar va muassasalarida erkaklarning ustunligi sezilmoqda. Bu esa xotin-qizlarning ilmiy tadqiqotlar, innovatsion dasturlar va texnologiyalarda faol ishtirok etishiga to'siq bo'layotgan omildan biridir.

d) Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi cheklolvar: Ayollarning jamiyatdagi ma'naviy-ma'rifiy rolini oshirishga bo'lgan qiziqish past. Ko'plab xotin-qizlar ijtimoiy va madaniy sohalarda faoliyat yuritishga qiziqmaydilar, bu esa jamiyatda ma'naviy qadriyatlarning tarqalishiga to'sqinlik qiladigan achinarli holatlardan biridir.

e) Ijtimoiy himoyaning yetarli emasligi haligacha ayollarga o'limi yildan yilga ortib yanada vaxshiyarcha o'ldirilish davom etmoqda. Bunday holat qizlarning tug'ilish sonini keskin kamayishiga olib keladi.

Organishlar natijasida aniqlandiki bugungi kunda O'zbekistonda ijtimoiy himoya bilan shug'illanayotgan tashkilotlar quydagilar:

1. O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi – ayollar va oilalar farovonligini oshirish, ularning ijtimoiy himoyasini ta'minlash bilan shug'ullanadi.

2. O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi – ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tengligini ta'minlash bilan shug'ullanadi.

3. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi – ayollar huquqlarini himoya qilish, gender tengligi masalalarini hal qilishda yordam beradi.

4. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi – ishsiz yoki muammoli holatda bo‘lgan ayollarga ish topishda yordam berish, mehnat huquqlarini himoya qilish bilan shug‘ullanadi.

5. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi – nogironligi bo‘lgan ayollarni qo‘llab-quvvatlash, ularga yordam ko‘rsatish bilan shug‘ullanadi.

6. Turli nodavlat tashkilotlar (NNT) va xalqaro tashkilotlar – xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish va ularni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha faoliyat yuritadi.

Bugungi zamonaviy jamiyatda ayollarning ilmiy, iqtisodiy, ma’naviy-madaniy hamda turli sohalardagi ishtiroki, fidokorona mehnatlari Vatanimiz taraqqiyotiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu borada yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev “8-mart – Xalqaro-xotin qizlar kuni” munosabati bilan bo‘lib o‘tgan tadbirda “.... Sizlarning barcha sohalardagi samarali mehnatingiz, farzandlar tarbiyasi, oila hayotidagi ulkan xizmatlaringizni hisobga olib aytadigan bo‘lsak, jamiyatdagi o‘rningiz, O‘zbekistonimiz erishayotgan yutuqlardagi beqiyos hissangizni hech narsa bilan o‘lchab, baholab bo‘lmaydi”⁹⁰ deya xotin-qizlarning bugungi jamiyatdagi o‘rni va rolini yanada yuqori baholadilar va xotin-qizlar harakatlarini har tomonlama qo‘llab-quvatlashga tayyor ekanliklarini aytib o‘tdilar.

III.NATIJALAR

Zamonaviy jamiyatda xotin-qizlarning innovatsion tafakkurini oshirish orqali ilmiy-amaliy va ma’rifiy salohiyatini oshirish nafaqat ularning o‘z rivoji uchun, balki jamiyat taraqqiyoti uchun muhim hisoblanadi. Davlat va jamoatchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlovchi chora-tadbirlar amalga oshirilsa, xotin-qizlar ilm-fan, ta’lim va ma’naviy-ma’rifiy sohalarda yanada faolroq ishtirok etishi ayni zamon talabi. Ularning salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish orqali jamiyatning har tomonlhma taraqqiyotiga erishish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldag“Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishslash tizimini yangi darajaga olib chiqish choratadbirlari to‘g‘risi”dagi PF-5938-son Farmoni Yangilanayotgan O‘zbekistonda xotin-qizlarning yangi qiyofalarini ochishda, jamiyatimizning faol qatlami sifatida barcha sohalarda faolligini o‘stirishda, milliy mentalitetimizga xos ma’naviy qadriyat va fazilatlarni kamol toptirishda, oila, davlat va jamiyat boshqaruvidagi rolini yuksaltirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: “Hozirgi kunda har bir xotin-qiz demokratik jarayonlarning kuzatuvchisi emas, balki faol va tashabbuskor ishtirokchisi bo‘lmog‘i shart”⁹¹ degan chaqiriq bilan xalqimizni uyg‘oqlikka chaqirdilar.

Xotin-qizlarning ta’lim olishi va kasbiy rivojlanishiga sharoit yaratish nafaqat ayollar uchun, balki jamiyatning umumiy rivojlanishi uchun ham foydalidir.

⁹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.

⁹¹ Mirziyoyev Sh.O‘zbekiston Respublikasi oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi maslisidagi nutqi//Xalq so‘zi.-№127(7357)22.06.2019.

Ayollarning ilm olish va professional sohalarda faol ishtirok etishi uchun ijtimoiy mezon va normalar to'siq bo'lib emas aksincha ularning innovatsion tafakkurini rivojlanishiga, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'yashiz lozim. Shu bois, gender tengligi tamoyillariga rioya qilish, xotin-qizlarning ta'lismi va mehnat bozorida faol ishtirok etishini qo'llab-quvvatlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib, zero aqilli oqila qizlardan dunyoga keladigan yurt kelajagi bunyodkorlari ham tegsiz aql-zakovat egasi bo'lishligi shubhasiz.

YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha ilm-fan sohasida ishlaydigan tadqiqotchilarining 30-35% ayollar hisoblanadi. O'zbekistonda bu ko'rsatkich 48 foizni tashkil etadi⁹² deyiladi. Xotin-qizlarga yaratilayotgan imkoniyatlardan har tomonlama foydalanish va bildirilgan ishonchni oqlash asosiy vazifasi bo'lgan ilim yo'liyda izlanayotgan ayol-qizlarni qo'llab-quvvatlanishi bu taqsinga sazovor harakat nazarimda.

O'zbekistonda 2022—2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotidagi faolligini oshirish bo'yicha Milliy dastur tasdiqlangan⁹³, bo'lib asosiy maqsad xotin-qizlarning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy qo'llab quvatlashga asoslangan.

Ayollarning fan va texnika sohasidagi ishtiroki mamlakatning innovatsion tafakkurini rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayollar ta'lismi sohasida faol bo'lsa, jamiyatning ma'naviy me'zon va qadriyatlarga sodiq holda, saviyasi oshib, intellektual salohiyati yuksaladi. Ayollarning ta'lismi va fan sohasida to'laqonli ishtiroki gender tengligini ta'minlaydi va jamiyatda barqarorlikka hissa qo'shamdi. Oliy ma'lumotli onalar farzandlarining savodxonligi va intellektual rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Ayrim jamiyat qatlamlarida ayollarning ilm-fan va texnika sohalaridagi ishtirokiga nisbatan salbiy fikrlar mavjud. Ba'zi insonlar «Ayol kishi o'qib shahar olib berarmidi» degan noto'g'ri tushunchaga ega. Bugungi global dunyoda global fuqaroni tayyorlash vaqtini yetib keldi. Bugun bilimsiz, qo'lida mutaxassilik diplomiga ega bo'limgan va ish joyiga ega bo'limgan insonga psixoloik va iqtisodiy jihatdan ham murakkab vaziyatlar paydo bo'lishi mumkin. Zamon to'siqlarini dovdirab qolmasdan, shokka tushmasdan oqilona bosib o'tish qobiliyatini shakllantirish, muammo inson hayoti davomida uning parallelida mavjud bo'lishi va undan qo'rmaslik, o'z hayotini boshqarish salohiyatiga ega bo'lish, oyoqda mahkam turish va o'ziga ishonchi ortishi uchun albatta har bir xotin-qiz bilim va kasb cho'qqilarini egallashi lozim. Bunday insonlar oilasida barqarorlik va rivojlanish bo'ladi, unda voyaga yetgan farzandlar davlat va jamiyat uchun xizmat qiladi, vatanparvarlik namunalarini ko'rsatadi. Bir so'z bilan aytganda birinchi navbatda olma ayol millat tarbiyachisidek og'ir va sharaflı vazifani bajaradi. Shuning uchun ham bugun qizlarni o'qitish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi bejiz emas.

⁹² Ўзбекистонда олимларнинг 48 фоизини аёллар ташкил этади // <https://daryo.uz/k/2025/02/11/saida-mirziyoyeva-ozbekiston-olima-ayollari-forumida-ishtirok-etdi-foto>

⁹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida // <https://lex.uz/uz/docs/-5899498>

Ayollarni ilm-fan va texnologiyalar sohasiga jalg qilish, birinchi navbatda, ularning innovatsion tafakkurini oshirish, ayollarning jamiyatdagi tengligi nuqtai nazaridan juda muhimdir. Ilm-fan va texnologiyalar bugungi kunda jamiyatning har bir sohasini shakllantiruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanib kelayotgani hech kimga sir emas. Agar xotin-qizlar bu sohalarga etarli darajada jalg qilinmasa, ilmiy kashfiyotlar va texnologik rivojlanish jarayoni to‘liq amalga oshirilmaydi. Ayollarning mehnat bozorida va ilmiy ishlarda ishtirokini kengaytirish, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishning tezlashishiga olib keladi⁹⁴. Jamiyatda ijtimoiy me’zon va normalarga uyg‘unlashtirish kerak.

IV.XULOSA

Xotin-qizlarning innovatsion tafakkurini rivojlantirish jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, bu jarayonda ta’lim olishdagi chekllovlar, gender stereotiplari, oilaviy majburiyatlarning notekis taqsimlanishi, moliyaviy resurslarga cheklangan kirish, raqamli texnologiyalarga yetarlicha ega bo‘lmaslik, huquqiy himoya zaifligi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimining yetishmovchiligi kabi muammolar to‘sinqinlik qilmoqda.

Ushbu to‘sqliarni bartaraf etish uchun ta’lim va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish, gender tengligini ta’minlash, moliyaviy resurslarga kirishni osonlashtirish, innovatsion loyihibar uchun grant va dasturlarni rivojlantirish hamda xotin-qizlarning huquqiy himoyasini mustahkamlash zarur. Shundagina jamiyatda ayollar ijodkorlik va innovatsiyaga faol hissa qo’sha oladi, bu esa umuman olganda mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Xotin-qizlarning innovatsion tafakkurini rivojlantirishga to‘sinqinlik qilayotgan omillarni bartaraf etish uchun quyidagi strategiyalarni amalgaga oshirish mumkin:

1. Ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish

STEM yo‘nalishlarida (fan, texnologiya, muhandislik, matematika) ta’lim olish imkoniyatlarini oshirish

Xotin-qizlar uchun grantlar, stipendiyalar va maxsus dasturlarni joriy etish

Masofaviy ta’lim va onlayn kurslarni ommalashtirish

2. Gender stereotiplarini kamaytirish

Jamoatchilik orasida gender tengligi targ‘ibotini kuchaytirish

OAV orqali muvaffaqiyatli tadbirkor va olima ayollar haqidagi hikoyalarni ko‘paytirish

Ta’lim tizimida gender neytral yondashuvni rivojlantirish

3. Oilaviy majburiyatlarni teng taqsimlash

Ish va shaxsiy hayot muvozanatini saqlashga imkon beruvchi mehnat qonunlarini joriy etish

Bolalar bog‘chalari va oilaviy xizmatlarni rivojlantirish

Erkaklar orasida uy ishlarini teng taqsimlash madaniyatini shakllantirish

4. Moliyaviy resurslarga kirishni kengaytirish

Xotin-qizlar uchun maxsus biznes grantlari va kredit dasturlarini ishlab chiqish

⁹⁴ Ismoilova, N. (2020) "The Role of Women in Scientific and Technological Progress in Uzbekistan"

Ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash markazlarini tashkil qilish Startaplar uchun investitsiya jalg qilish imkoniyatlarini kengaytirish

5. Raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirishni rag‘batlantirish

Ayollar uchun IT kurslari va texnologik inkubatorlar yaratish

Raqamli savodxonlik bo‘yicha bepul treninglar tashkil qilish

Ayollarni innovatsion startaplarga jalg qilish

6. Huquqiy himoyani kuchaytirish

Xotin-qizlarning mulkiy va iqtisodiy huquqlarini himoya qiluvchi qonunlarni takomillashtirish

Ayollar huquqlarini targ‘ib qiluvchi yuridik maslahat xizmatlarini rivojlantirish

Gender tengligini qo‘llab-quvvatlovchi xalqaro tajribalarni joriy qilish

7. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish

Xotin-qizlarning innovatsion g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlaydigan hamjamiyat va tarmoqlar yaratish

Mentorlik va murabbiylik dasturlarini yo‘lga qo‘yish

Davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish

Agar ushbu chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilsa, xotin-qizlarning innovatsion tafakkurini rivojlantirishga to‘sinqlik qilayotgan omillar sezilarli darajada kamayadi. Ijtimoiy me’zon va normalar uyg‘unligi ham ta’minlandi.

V. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.

2. Mirziyoyev Sh.O ‘zbekiston Respublikasi oliy Majlisi Senatining yigirmanchi yalpi maslisidagi nutqi//Xalq so‘zi.-№127(7357)22.06.2019.

3. Ўзбекистонда олимларнинг 48 фоизини аёллар ташкил этади // <https://daryo.uz/k/2025/02/11/saida-mirziyoyeva-ozbekiston-olima-ayollari-forumida-ishtirok-etdi-foto>

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida // <https://lex.uz/uz/docs/-5899498>

5. Ismoilova, N. (2020) “The Role of Women in Scientific and Technological Progress in Uzbekistan”.

6. Mirziyoyev, Sh. (2019). “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari.” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Toshkent: O‘zbekiston hukumati.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqi. (2023). “Xotin-qizlar – bu jamiyatning o‘zagini tashkil etuvchi eng muhim va qadrlik tarkibiy qismidir.” Toshkent, O‘zbekiston.